

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AZIMOV HABUBULLOXON YAKUBOVICH

SURIYA INQIROZINING TURKIYADAGI IJTIMOY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA’SIRI

23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”

Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2024

UO‘K: 316.48.
BBK: 67.91+66.4(0)
A-35

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori dissertatsiyasi (PhD)
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по политическим наукам**

**Content of Dissertation Abstract
the Doctor of philosophy (PhD) in political Sciences**

Azimov Habubulloxon Yakubovich

Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga
ta’siri..... 3

АЗИМОВ Хабубуллахан Якубович

Влияние сирийского кризиса на общественно-политические
процессы в Турции.....23

Azimov Habubullokhan Yakubovich

The impact of the Syrian crisis on social and political processes in
Türkiye.....44

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works

**TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc/03/29.12.2022/Ss/Tar.21.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

AZIMOV HABUBULLOXON YAKUBOVICH

**SURIYA INQIROZINING TURKIYADAGI IJTIMOYIY-SIYOSIY
JARAYONLARGA TA’SIRI**

23.00.02 – “Siyosiy institutlar, jarayonlar va texnologiyalar”

**Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2019.3.PhD/Ss162 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsuos.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	Muhammadsidiqov Muhammadolim Muhammadroziq o'g'li siyosiy fanlar doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	Yovqochev Shuhrat Akmalovich siyosiy fanlari doktori, professor Munavvarov Zohidullo Inomxodjayevich siyosiy fanlar doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi DSc.03/29.12.2022.Ss/Tar.21.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «__» _____soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-34-24; faks: (998971) 233-52-24; e-mail: sharq_ilmiy@mail.ru).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (___ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100060, Toshkent sh., Amir Temur ko'chasi, 20-uy. Tel.: (99871) 233-45-21.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____kuni tarqatildi.

(2024-yil «__» _____dagi ___-raqamli reyestr bayonnomasi).

D.B. Sayfullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
tarix fanlari doktori, professor

S.A. Jo'rayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi v.v.b., siyosiy fanlar doktori,
professor

E.S. Sultonova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
huzuridagi Ilmiy seminar raisi, siyosiy fanlar
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi jahon siyosati va xalqaro munosabatlar tizimida ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning kuchayib borish tendensiyasi kuzatilib, davlatlararo hamkorlik jarayonlarida o‘zaro ishonch, birdamlik va diplomatiyaga qaytadan ehtiyoj sezilmoqda. Buning natijasi Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar tizimida aks etib, qarama-qarshilik va ziddiyatlarning ortib borishiga, global muloqot zanjirlarining izdan chiqishi va chuqur transformatsiyasiga sabab bo‘lmoqda. Mazkur jarayonlarning Markaziy Osiyo mintaqasidagi tinchlik va barqarorlik muhitiga ta’siri masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va unga ta’sir ko‘rsatayotgan Suriya inqirozining hozirgi davrdagi tadrijiy o‘zgarishlari, jumladan uning ta’siri mintaqaviylik doirasidan chiqib, mintaqalararo va global xususiyat kasb etishiga oid izlanishlar ustuvor darajada tadqiq etilmoqda. Ushbu tadqiqotlardan o‘rin olgan masalalar Suriya inqirozini bartaraf etishning ilmiy-nazariy modellarini ishlab chiqish, bu borada Turkiyaning tashqi siyosiy yondashuvini aniqlash, umuman Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarning metodologik asoslarini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarning safi kengayib borishiga zamin yaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi ochiq, pragmatik va faol tashqi siyosat olib borish bo‘yicha an’anaviy, keng qamrovli va o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish, turli mintaqalarda milliy manfaatlarni ilgari surish orqali xalqaro hamkorlik geografiyasini kengaytirish kabi maqsadlarga qaratilgan strategiyani izchil amalga oshirmoqda. Shu maqsadda Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlari bilan yangi va istiqbolli yo‘nalishlarda barqaror hamkorlik sur‘atlarini jadallashtirish, keng mintaqalarni bog‘lashga imkon yaratuvchi yo‘laklarni shakllantirish doirasida Suriya inqirozining Markaziy Osiyo mintaqasi xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga o‘z ta’sirini ko‘rsatib kelayotgani va bunga qarshi preventiv diplomatik choralar ko‘rish jarayonlarida Turkiya bilan hamkorlik qilish va uning tajribasidan foydalanish zaruriyati paydo bo‘lmoqda. “...besh marta “Mehr” insonparvarlik missiyasini o‘tkazdik. Uning doirasida 530 nafardan ziyod fuqarolar, avvalo, ayollar va bolalarni Yaqin Sharq va Afg‘onistondagi qurolli nizolar hududlaridan yurtimizga qaytardik. Ularning barchasiga tibbiy, psixologik, ijtimoiy va boshqa yordamlar ko‘rsatildi”¹.

Ushbu dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-fevraldagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 15-noyabrdagi PF-5876-son “Millatlararo munosabatlar sohasida O‘zbekiston Respublikasi davlat siyosati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2018-yil 5-apreldagi PF-5400-son

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/uz/lists/view/6677>

“O‘zbekiston Respublikasining Tashqi ishlar vazirligi tizimini tubdan takomillashtirish hamda siyosiy va tashqi iqtisodiy faoliyatning ustuvor yo‘nalishlarini amalga oshirishda uning mas‘uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O‘zbekiston tashqi siyosati, xususan Turkiya bilan strategik hamkorlik aloqalari, Suriyadagi o‘zbekistonlik fuqarolarni o‘z yurtiga qaytarishga oid konseptual va strategik g‘oyalari tadqiqotning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi².

Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va milliy xavfsizlikka ta‘siri masalalari mahalliy olimlar tomonidan mustaqil tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada o‘rganilmagan. Yaqin Sharq mintaqasida Suriya inqirozi va uning Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta‘siri bilan bog‘liq bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarni quyidagi guruhlariga ajratib, tahlil qilish mumkin.

Birinchi guruhga³ turk va arab tadqiqotchilarining Suriya inqirozining kelib chiqish sabablari, Turkiya va Suriya aloqalarining shakllanish va rivojlanish tarixi, Turkiyaning Suriyadagi manfaatlari va shu bilan bog‘liq harbiy amaliyotlari, Suriya inqirozining Turkiya ichki siyosatiga ta‘siri masalalari atroflicha ochib berilgan. Jumladan, Umer Guksel Ishyar, Mehmet Akif Okur, Nuri Salik, Umer Faruk Topal, Muhammad Huseyn Merjan, Talip Uzdugan, Gulshah Neslihan Akkaya, Ahmet Ayhan Kuyunju, Sami Kiraz, Uzge Yavuz, Hamza Yavuz, Abdulgani Bozkurt, Tayyar Ari kabi turk olimlarining Suriya va Turkiya aloqalarining murakkab tadriji, Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga diniy, etnik, siyosiy, geosiyosiy hamda suv omillari orqali salbiy ta‘sir ko‘rsatgani tahlil etiladi.

² Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Т.: “O‘zbekiston”, 2021. – 464 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари. – Т.4. Т.: Ўзбекистон, 2020. – 456 б.; Мирзиёев Ш.М. Нияти улуг халқнинг – иши ҳам улуг, ҳаёти ҳам ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. – Т.3. – Т.: Ўзбекистон, 2019. – 400 б.; Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. – Т.2. – Т.: Ўзбекистон, 2018. – 508 б.; Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Т.1. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 592 б.; Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017. – 488 б.; O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasidagi nutqi // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining matbuot xizmati. 20.09.2023. <https://president.uz/oz/lists/view/6677>

³ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati” qismida keltirilgan.

Arab olimlaridan Somar Ganem, Haddad Muhannad, Havamdeh Huseyn Falah va Maj Ali A.Muhammadning ilmiy tadqiqot ishlari Turkiya va Suriya munosabatlarining sovuqlashishi sabablari, Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy muammolarning vujudga kelishiga Suriya inqirozining ta'sirini o'rganishda muhim adabiyotlar bo'lib xizmat qiladi.

Ikkinchi guruhga G'arb olimlarining ingliz tilidagi tadqiqot⁴ nashrlarini kiritish mumkin. Jumladan, Prinston universitetining Yaqin Sharq tadqiqotlari professori Bernard Luis, amerikalik olim Barri Rubin, Samuel Hantington, Amsterdam universiteti professori Mehdi Parvize Amineh, Flipp Marburg universiteti professori Markur Shroyer, Tinchlik instituti va Vilson markazi olimi Robert Rayt, Hedley Bull, Farid Zakariya, Tashqi siyosiy tadqiqotlar instituti (Foreign Policy Research Institute) direktori, amerikalik olim Daniyel Payps, Robert D.Kaplan, Nikolas van Dam va boshqa olimlarning tadqiqotlaridan Yaqin Sharq mintaqasi, xususan Suriya inqirozining shakllanishi va rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar, "Katta Suriya" loyihasi, "Neomedievalizm" konsepsiyasi, Suriyadagi etnik va diniy bo'linishlar, sulolaviy boshqaruv tizimi, Suriya inqirozi bilan bog'liq sivilizatsiyaviy muammolar va ularning Turkiyaga ta'siri hamda Suriya hududlarini parchalashga qaratilgan rejalar xususida batafsil ma'lumotlar olish mumkin.

Uchinchi guruh tadqiqotlari⁵ doirasiga MDH davlatlari, jumladan o'zbek olimlarining Yaqin Sharq mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, arab davlatlaridagi inqirozlarning sabablari, "Arab bahori" voqealari, xususan Suriya inqirozi, shuningdek, Yaqin Sharqdagi diniy, etnik, hududiy nizolarning Markaziy Osiyo mintaqasiga salbiy ta'sirini o'tkazishi kabi masalalarni qamrab olgan tadqiqotlarini keltirish mumkin. Xususan, I.Matvev, O.Mazur, O.Barnashov, V.Avatkov, V.Sautov, D.Baranov, S.Melkonyan kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida Suriya mojarosi va uni hal etishda tashqi kuch markazlarining ishtiroki, Suriyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida alaviylar va boshqa musulmon jamoalarining o'rni, Suriyadagi siyosiy nizolarda kurdlar omili, zamonaviy xalqaro munosabatlarda Turkiya tashqi siyosati masalalari atroflicha tadqiq etilgan.

Ma'lumki, Yaqin Sharq dunyoning eng alanga olgan inqirozli mintaqalaridan biri bo'lib qolmoqda. Shu sababdan, Yaqin Sharqdagi ijtimoiy-siyosiy inqirozlarning sabablari va oqibatlari o'zbek olimlarining ham diqqat-e'tiboriga tushgan. Jumladan, N.Ibrohimov, M.Muhammadsidiqov, Sh.Yovqochev, N.Abdullayev, Z.Munavvarov, D.Madaminova, F.Karimov, K.Shoniyozov, M.Nishonov va boshqa o'zbek olimlari tadqiqotlarida Yaqin Sharq mintaqasi davlatlaridagi diniy-mazhabiy, etnik, hududiy va geosiyosiy muammolar, jumladan Suriyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat xususida ahamiyatga molik ilmiy xulosalar berilgan.

Yuqorida keltirilgan ilmiy ishlar doirasida Yaqin Sharq mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy muammolar bilan bog'liq bo'lgan nazariy va amaliy yo'nalishda muayyan natijalarga erishilgan. Biroq, mazkur olimlarning ishlarida Suriya inqirozining aynan Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri masalasi atroflicha tadqiq etilmagan.

⁴ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

⁵ Ushbu tadqiqotlar dissertatsiyaning "Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati" qismida keltirilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, mazkur masalani kompleks tarzda tadqiq etish muammoning o'rganilish darajasini dolzarb bo'lishiga zamin yaratgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi O'zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining II. "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy, sud-huquq islohotlarining mushtarakligi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Suriya inqirozining Turkiya milliy xavfsizligi va undagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardir:

Milliy-mintaqaviy xavfsizlikni ijtimoiy-siyosiy tadqiq etishga qaratilgan yondashuvlar va nazariyalarni aniqlash;

Yaqin Sharq mintaqasini ijtimoiy-siyosiy o'rganishning ilmiy-nazariy asoslarini ochib berish;

Suriya inqirozi yuzaga kelishining ijtimoiy-siyosiy sabablarini aniqlash;

Turkiya-Suriya munosabatlaridagi nizolarning asosiy omillarini tadqiq etish;

Turkiya va Suriya chegarasida vujudga kelgan kelgan tahlikali vaziyatni ochib berish;

Suriya qochqinlarining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'sirini o'rganish;

Suriya inqirozini hal etish istiqbollari, uning Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va Markaziy Osiyo milliy-mintaqaviy xavfsizligiga ta'siri bo'yicha o'zaro aloqadorlik xususiyatlarini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Suriya inqirozi va u bilan bog'liq muammolar belgilangan.

Tadqiqotning predmetini Suriya inqirozining yuzaga kelish sabablari va uning Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta'siri hamda Turkiyaning Suriya inqirozini hal etishga qaratilgan strategiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tarixiylik, qiyosiy tahlil, davrlashtirish, tizimlashtirish, taqqoslash, kuzatish, SWOT, kontent va ivalent-tahlil kabi usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Yaqin Sharq mintaqasining ijtimoiy-siyosiy holatini aks ettirishni nazarda tutuvchi Neomedievalizm, Shia hiloli va Baasizm singari paradigmalar Suriya Arab Respublikasining hududiy yaxlitligini parchalashga qaratilgani etno-diniy omillarga ko'ra aniqlangan;

Suriyadagi "Damashq bahori" voqealari oqibatida vujudga kelgan kurdlar va qochqinlar muammosi Turkiya va Suriya o'rtasida ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar munosabatlardagi nizo va ziddiyatlarning ortishiga va Turkiya tomonidan ilgari surilgan "Qo'shnilar bilan nol muammo" tamoyilining tamomila o'zgarishiga sabab bo'lgani isbotlangan;

"Kurd koridori" loyihasi va u bilan bog'liq ayirmachi guruhlarining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga davlatlararo, millatlararo va dinlararo ta'sir etuvchi salbiy omil sifatida baholanishi Turkiyaning Suriya bilan chegarada "Firoq qalqoni",

“Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog‘i” va “Panja qilich” nomli chora-tadbirlarni amalga oshirishiga asos bo‘lgani aniqlangan;

O‘zbekistonning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqot o‘rnatishga qaratilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasidan kelib chiqib, Yaqin Sharq mintaqasidagi turli millat va konfessiyalar vakillarining o‘zaro tinch-totuv hayot kechirishini ta’minlash bo‘yicha “Samarqand birdamlik tashabbusi”ni amalga oshirishi zaruriyati asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Yaqin Sharq mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarni tadqiq etish doirasida Suriya inqirozining kelib chiqish sabablari nazariy-metodologik jihatdan asoslab berilgan;

Yaqin Sharq mintaqasining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va geosiyosiy arxitekturasi istiqbolida “Yaqin Sharq neomedievalizmi” va “Yaqin Sharq dixotomiyasi” (sivilizatsion yondashuv) paradigmalarini ilmiy va o‘quv adabiyotlarida qo‘llash bo‘yicha konseptual takliflar bildirilgan;

Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’sirini e’tiborga olgan holda, butun Yaqin Sharq mintaqasidagi ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash masalalari yuzasidan amaliy tavsiyalar berilgan;

O‘zbekiston tashqi siyosatidagi milliy manfaatlaridan kelib chiqib, Suriya inqirozini hal etish jarayonlarida faol ishtirok etish va bu jarayonlarda Turkiya bilan hamkorlik qilish yuzasidan taklif va tavsiyalar berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiya materiallarida, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK ro‘yxatiga kirgan maxsus jurnallar va xorijiy ilmiy konferensiyalar materiallarida e’lon qilinganligi, amaliyotda joriy qilingani va vakolatli idoralar tomonidan tegishli tartibda tasdiqlanganligi bilan ta’minlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining *ilmiy ahamiyati* uning materiallaridan siyosatshunoslik, jahon siyosati, xalqaro munosabatlar, mintaqaviy-siyosiy jarayonlar, xalqaro va mintaqaviy xavfsizlik masalalariga oid darslik va qo‘llanmalar tayyorlashda, tashqi siyosatga doir tadqiqotlar o‘tkazishda foydali bo‘lishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining *amaliy ahamiyati* esa tadqiqot materiallari va xulosalaridan tegishli vazirlik va idoralar, oliy ta’lim muassasalari va sohaga oid muassasalar mutaxassislari uchun tahliliy materiallar tayyorlashda, ixtisoslashgan ta’lim muassasalarining o‘quv kurslari va dasturlarida “Konfliktologiya”, “Mintaqashunoslik”, “Xalqaro xavfsizlik”, “Siyosat va din”, “Geosiyosat”, “Jahon siyosati” fanlarini o‘qitishda hamda tegishli yo‘nalishlardagi tadqiqot ishlarini bajarishda foydalanish mumkinligi bilan ifodalanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Suriya inqirozining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga ta’siri bo‘yicha olingan tadqiqot natijalari asosida:

O‘zbekistonning Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha muvozanatli va doimiy muloqot o‘rnatishga qaratilgan “O‘zbekiston-2030” strategiyasidan kelib chiqib, Yaqin Sharq mintaqasidagi turli millat va konfessiyalar

vakillarining o‘zaro tinch-totuv hayot kechirishini ta’minlash bo‘yicha “Samarqand birdamlik tashabbusi”ni amalga oshirishi zaruriyati borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligining axborot-tahliliy hujjatlarini tayyorlashda Janubiy Osiyo, Yaqin, O‘rta Sharq va Afrika mamlakatlari bilan hamkorlik boshqarmasi tomonidan foydalanilgan. (*Tashqi ishlar vazirligining 2023-yil 24-oktabrdagi 18-130/41650-sonli dalolatnomasi*). Natijada dissertatsiyada bildirilgan ilmiy xulosalar, taklif va tavsiyalar sohaga oid axborot-tahliliy bazani takomillashtirishga va amalda qo‘llashga xizmat qilgan.

Yaqin Sharq mintaqasining ijtimoiy-siyosiy holatini aks ettirishni nazarda tutuvchi Neomedievalizm, Shia hiloli va Baasizm singari paradigmalar Suriya Arab Respublikasining hududiy yaxlitligini etno-diniy omillarga ko‘ra parchalashni maqsad qilgani xususidagi ilmiy xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasining O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi huzuridagi Malaka oshirish markazi kurslarining o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan. (*Din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning 2023-yil 14-noyabrdagi 02-02/02/1/484-sonli dalolatnomasi*). Natijada olingan nazariy xulosalar va ilmiy natijalar jamiyatda ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlash va diniy bag‘rikenglik g‘oyalarini ifodalovchi monografiya, kitob, o‘quv qo‘llanma va risolalarni chop etishga xizmat qilgan.

Suriyadagi “Damashq bahori” voqealari oqibatida vujudga kelgan kurdlar va qochqinlar muammosi Turkiya va Suriya o‘rtasida ikki tomonlama siyosiy, savdo-iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy-gumanitar munosabatlardagi nizo va ziddiyatlarning ortishiga va Turkiya tomonidan ilgari surilgan “Qo‘shnilar bilan nol muammo” tamoyilining tamomila o‘zgarishiga sabab bo‘lgani borasidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining ilmiy-amaliy konferensiya va seminarlarini tashkil etishda foydalanilgan. (*Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘stlik aloqalari qo‘mitasining 2023-yil 2-noyabrdagi 14-07-23-97-sonli dalolatnomasi*). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar Qo‘mitaning Turkiya Respublikasidagi vatandoshlar bilan do‘stona xalqaro madaniy-ma’rifiy aloqalarni yanada mustahkamlash, ular bilan o‘zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qilgan.

“Kurd koridori” loyihasi va u bilan bog‘liq ayirmachi guruhlarning Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga davlatlararo, millatlararo va dinlararo ta’sir etuvchi salbiy omil sifatida baholanishi Turkiyaning Suriya bilan chegarada “Firoq qalqoni”, “Zaytun novdasi”, “Tinchlik bulog‘i” va “Panja qilich” nomli chora-tadbirlarni amalga oshirishiga asos bo‘lgani xususidagi xulosalardan O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanalida efirga uzatilgan “Taqdimot” ko‘rsatuvini tayyorlashda foydalanilgan. (*O‘zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanali tomonidan berilgan 2023-yil 13-oktabrdagi 02-35-1542-sonli dalolatnomasi*). Natijada ushbu ko‘rsatuv Suriya inqirozining kelib chiqish sabablari va Turkiyaning ushbu inqirozni hal etishga qaratilgan strategiyasi mazmun-mohiyatini keng jamoatchilik va aholiga ilmiy tarzda yetkazishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro darajadagi va 5 ta respublika miqyosidagi konferensiyada muhokama qilingan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 8 ta maqola (ulardan 5 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda) nashr ettirilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning tadqiqot qismi 158 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan, mavzuning o'rganilganlik darajasi hamda uning dissertatsiya ishi bilan bog'liqligi bayon qilingan, ishning maqsad va vazifalari, obykti va predmeti belgilangan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijasi hamda asosiy tadqiqot usullari ko'rsatib berilgan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan holda, ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, shuningdek, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, aprobatsiya va e'lon qilingan ishlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Yaqin Sharqda milliy-mintaqaviy xavfsizlikni ijtimoiy-siyosiy tadqiq etishning nazariy-metodologik xususiyatlari”** deb nomlangan birinchi bobida milliy-mintaqaviy xavfsizlik muammolarini tadqiq etishda realizm va liberalizm mumtoz maktablari ko'rib chiqilib, unga doir zamonaviy integratsion va fanlararo yondashuv ishlab chiqish, shuningdek, Yaqin Sharq mintaqasidagi milliy-mintaqaviy xavfsizlikni ijtimoiy-siyosiy tadqiq etishda geoijtimoiy va geosiyosiy yondashuvlarni o'rganish asoslari tahlil qilingan.

Bugungi kunda milliy-mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan bo'lgan mumtoz yondashuvlar kutilgan natijasini bermasdan kelmoqda. Jahon siyosiy sahnasida sodir bo'layotgan turli qurolli nizolar hali hanuz yechimini topgani yo'q. Yirik davlatlar o'rtasidagi raqobat keskin tus olib, dunyoni qayta taqsimlash, turli harbiy-siyosiy bloklarga ajralish kabi tendensiyalar odatiy holga aylanib bormoqda. O'z-o'zidan bu zayldagi jarayonlar davlatlar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va ishonchga putur yetkazmoqda. Tabiiyki, qutblashish, qurolli kuch ishlatish va zo'ravonlik singari XX asr stereotiplari XXI asrda ham bot-bot takrorlanayotgani milliy va mintaqaviy xavfsizlikni tadqiq etishda yangi ilmiy yondashuvlarni ilgari surish lozimligini ko'rsatib bermoqda. Xususan, Yaqin Sharqda sodir bo'lgan “Arab bahori” voqealari milliy-mintaqaviy xavfsizlikning ijtimoiy-siyosiy tadqiqi uchun amaliy voqelik bo'lib xizmat qiladi. Arab davlatlaridagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar dinamikasi hattoki butun Yaqin Sharq mintaqaviy xavfsizligiga zanjir reaksiyasi kabi ta'sir etganligini guvohi bo'ldik. Shundan kelib chiqib, bizningcha, ikki xil yondashuvni ilgari surish mumkin:

Geoijtimoiy yondashuv. Jamiyat va makon munosabatlari mintaqaning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab berganidek, uning xavfsizlik istiqbollarini ham gipoteza qilishga katta turtki beradi. Ilmiy mulohazalarimizga ko'ra, bu yondashuvda sotsiomadaniy, sotsiodiniy hamda sotsioetnik omillar mintaqaviy xavfsizlik tizimiga ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan bu fanda geosotsiologiya deb ham ataladi. Flipp Marburg universiteti professori Markur Shroyer "Geosotsiologiya"⁶ kitobida tabiat, madaniyat va jamiyat o'rtasidagi bog'liqlikning hudud yoki makonga ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, ijtimoiy resurslarning teng taqsimlanmagani vaqtlar o'tib boshqa hududlarni egallashga undashini tadqiq etadi. Uning xulosasiga ko'ra, kelajak inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning uyg'unligiga, resurslarning qanday taqsimlanishiga hamda ular qanday qilib hamkorlik qilishi yoki musobaqalashishiga bog'liq bo'ladi.

Geosiyosiy yondashuv. Bu yondashuvni geosiyosiy xavfsizlik deb ham nomlash mumkin. Umuman, geosiyosiy xavfsizlik, ekologik xavfsizlik, transchegaraviy suv resurslari, narkotik moddalar savdosi, chegara va boshqa muammolar mintaqaviy xavfsizlikning tarkibiga kiradi. Jumladan, geosiyosiy xavfsizlik tushunchasini mintaqaviy xavfsizlikning muhim bir bo'g'ini sifatida tashqi kuchlarning ma'lum hudud yoki makonga ta'siri, tahdidi hamda bosim xavfini oldini olishga qaratilgan holati, deb ta'riflash mumkin. Milliy-mintaqaviy xavfsizlikning geosiyosiy yondashuvi transformatsiyalar sharoitida yangicha tafakkurni namoyon etaveradi. Ayniqsa, bu holat Yaqin Sharq singari mintaqaholisining ijtimoiy-siyosiy tabiati bilan chambarchas bog'liq.

Yaqin Sharq mintaqasining o'ziga xosligi shundaki, u nafaqat qulay geografik va strategik makonda joylashgani, tabiiy energetika resurslariga boy ekanligi, turli dinlar tutashgan muqaddas maskan hisoblanishi bilan, balki shu omillar tufayli turli murakkab mojarolar iskanjasida qolayotgan mintaqahamdir. Yaqin Sharqdagi inqirozlar turfaligi bilan ham jahonning qolgan mintaqalaridan ajralib turadi. Shu nuqtayi nazardan, ushbu mintaqadagi muammolar soha tadqiqotchilarining eng ko'p o'rganilgan va hali hanuz o'rganilayotgan ilmiy ishlari obyektiga aylangan. Tabiiyki, Yaqin Sharqning inqirozli masalalari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar hajmi juda sermahsul bo'lganligi sababli uni mahalliy va xorijiy tadqiqotlar guruhiga ajratib olish mumkin. Shuningdek, tadqiqotlarda Yaqin Sharq makonining ijtimoiy-siyosiy qiyofasini qisman aks ettiruvchi "Katta Yaqin Sharq", "Yangi Yaqin Sharq", "Uch dunyo urushi", Panarabizm, "Shia hiloli", "Neomedievalizm" singari nazariya yoki konsepsiyalar Yaqin Sharqning hozirgi yoki bo'lg'usi manzarasini tom ma'noda xolis va obyektiv baholay olmaydi. Shundan kelib chiqib, "Yaqin Sharq neomedievalizmi" va "Yaqin Sharq dixotomiyasi" (sivilizatsion yondashuv) paradigmlarini ilmiy maydonga olib kirishni taklif etamiz.

Dissertatsiyaning "**Suriya inqirozi va Turkiya-Suriya munosabatlaridagi asosiy muammolar**" deb nomlangan ikkinchi bobi Suriya inqirozining kelib chiqish bosqichlari va uni yuzaga keltirgan ijtimoiy-siyosiy sabablar, Turkiya va Suriya

⁶ Schroer Markus. Geosozologie. Die Erde als Raum des Lebens. Berlin: Suhrkamp. 2022. 672 s.

munosabatlardagi nizolarning asosiy omillari hamda Suriya inqirozini hal etishga qaratilgan tashabbuslarni o'rganishga bag'ishlangan.

Suriya inqirozi – bu global muammolarning eng katta fojialaridan biridir. “Arab bahori” voqealari Suriyada siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy inqirozning alanga olishiga olib kelgan asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Natijada Suriya inqirozi butun jahondagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Agar bu inqirozni yillar kesimida tahlil etganimizda, u Birinchi jahon urushidan (4 yil va 3,5 oy), Ikkinchi jahon urushidan (6 yil), Eron-Iroq urushidan (7 yil va 11 oy), G'arb koalitsiyasining Iroqdagi 2003-yil boshlangan amaliyotlaridan (8 yil va 9 oy) va Sovet-Afg'on urushidan (9 yil va 2 oy) ham o'tib ketganini ko'rishimiz mumkin. Qolaversa, 2024-yil bilan hisoblaganda 13 yildan ohsa hamki, Suriya inqirozi hanuz davom etib kelmoqda. Hozirgi ming yillikning mahalliy urushlari orasida (jahon urushlarida vafot etgan millionlab insonlarni hisobga olmaganda) tinch aholining halok bo'lish ko'rsatkichlari bo'yicha ham Suriya inqirozi birinchi o'rinni egallaydi. Turli baholashlarga ko'ra, 2011-yildan 2020-yilga qadar Suriyada 384-586 ming nafar aholi halok bo'lgan⁷. Taqqoslash uchun: AQSh rahbarligidagi G'arb koalitsiyasining Iroqdagi 2003-2011-yillardagi urushida 116-151 ming nafar begunoh aholi vafot etgan⁸. Bayrutdagi “Lancet-Amerika universitetining Suriya masalalari bo'yicha komissiyasi” a'zolarining xulosa qilishicha, Suriya inqirozi Ikkinchi jahon urushidan buyon eng keng ko'lamli gumanitar inqirozlardan biriga aylandi⁹. BMTning Qochoqlar bo'yicha Oliy komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, Suriyaning 6,2 million aholisi qurolli nizolar tufayli ichki ko'chishlardan aziyat chekmoqda, 6,7 million aholisi esa xorijiy davlatlarda qochoq sifatida kun kechirmoqda¹⁰. Bundan tashqari, Suriya inqirozi tashqi kuchlarni mojaroga jalb etish bo'yicha ham “peshqadam” bo'lib qolmoqda. Suriyaning havo va quruqlik hududlarida o'tkazilgan harbiy harakatlarni hisobga olganda, jami 20 dan ortiq davlatlar mazkur inqirozning ishtirokchilari hisoblanadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan raqamlar Suriya inqirozining shakllanish va rivojlanish bosqichlari, sabab va oqibatlari haqida ilmiy fikr-mulohazalar bildirishga undaydi. Shu o'rinda, Suriya inqirozining muqaddimasini “Arab bahori” voqealari bilan bog'lash muammoning asl ildizlarini to'liq tushunishga imkon bermaydi, deb aytish uchun yetarli asoslar mavjud. Mazkur inqirozni chuqur tadqiq etish maqsadlariga erishishda tarixiylik metodlariga tayanish o'rinli bo'ladi. Umuman, Suriya inqirozini mamlakat mustaqilligidan hozirgi vaqtgacha bo'lgan 3 ta bosqichda o'rganish mojaroni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va shu asosida xulosa

⁷ Syria Observatory for Human Rights. Syrian Revolution nine years on: 586100 persons killed and millions of Syrians displaced and injured. March 15, 2020. <https://www.syriaohr.com/en/157193/> (accessed March 11, 2021).

⁸ Birinchi ko'rsatkich: Blair D. Iraq war 10 years on: at least 116,000 civilians killed. The Telegraph. <https://www.telegraph.co.uk/news/worldnews/middleeast/iraq/9932214/Iraq-war-10-years-on-at-least-116000-civilians-killed.html>. Ikkinchi ko'rsatkich: 151,000 Iraqis died violent deaths in three years after 2003 invasion // UN study. <https://news.un.org/en/story/2008/01/245322>

⁹ 10 years of the Syrian conflict: a time to act and not merely to remember. <https://cred.be/sites/default/files/PIIS0140673621006231.pdf>

¹⁰ UNHCR. Syria: internally displaced people. <https://www.unhcr.org/sy/> internally-displaced-people (accessed March 11, 2021).

qilishda muhim rol o'ynaydi. Birinchi bosqich – 1946-1963-yilllar, Ikkinchi bosqich – 1963-2011-yillar va Uchinchi bosqich – 2011-yildan hozirgi vaqtgacha. Shundan kelib chiqqan holda, Suriya inqirozini yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar sifatida o'tmishda o'rnatilgan sun'iy chegaralar, uzoq muddatli sulolaviy boshqaruv, mafkuraviy ziddiyatlar, etno-diniy va tashqi kuchlar omillarini sanab o'tish mumkin.

Taniqli diplomat Lord Palmerston o'z qaydlarining birida Suriyani Osiyo Turkiyasining harbiy kalitidir¹¹, deb ta'riflagan edi. Turkiya va Suriya o'rtasidagi munosabatlar o'tgan davrlar davomida ba'zan ziddiyatli, ba'zan yaqin qo'shnichilik tamoyillari asosida rivojlanib bordi. Ammo, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar tarozisida ziddiyatlar ko'lami "tosh bosishi"ni kuzatish mumkin. Suriyaning shimoliy hududlari Turkiyaning quruqlikdagi eng katta janubiy chegarasi hisoblanadi. Suriyaning shimolidagi har qanday ijtimoiy-siyosiy vaziyat o'z-o'zidan Turkiyaning ham ijtimoiy-siyosiy holatiga jiddiy ta'sirini o'tkazadi. Bu borada ikki davlat o'rtasidagi chegara tortishuvlari (Hatay), etnik (Kurdiston ishchi partiyasi – KIP), diniy-mazhabiy va siyosiy muammolar (Bashar Asad rejimi), suv muammosi (Janubi-Sharqiy Anadolu loyihasi – Guneydoğu Anadolu Projesi (GAP)) hamda "Arab bahori" voqealari o'zaro munosabatlarning sovuqlashishiga olib kelgan sabablar sifatida izohlanadi.

2011-yildan so'ng Suriya inqirozi global gumanitar fojiga aylanib, uni tartibga solish bo'yicha mintaqaviy va xalqaro darajada takliflar va tinchlik muzokaralari ishlab chiqildi. Suriya inqirozini hal etish maqsadida taklif etilgan tashabbuslar o'ziga xosligi, mojaroning u yoki bu elementlarini bartaraf etishga qaratilgani, inqirozga daxldor tomonlarni murosaga chorlashi hamda bo'lg'usi Suriyani qayta tiklash maqsadlarini ko'zlagani bilan ahamiyatga ega hisoblanadi. Biroq, Kofi Annan tinchlik rejasi, Jeneva muzokaralari, "Suriyaning do'stlari" formati, Ostona jarayoni kabi muzokaralar Suriyadagi kurashayotgan tomonlarning noroziligi va Suriyaga daxldor tashqi kuchlarning raqobati natijasida kutilgan samarani bermadi. Shunday sharoitda Turkiyaning Suriya bilan bog'liq tashabbuslari inqirozni mustaqil tarzda hal etishga intilishi va bu borada tashabbuskor kuch markaziga aylanishi bilan belgilanadi.

"Suriya inqirozining Turkiya milliy xavfsizligi va ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga ta'siri muammolari" deb nomlangan uchinchi bobda Suriya inqirozining, jumladan Suriya qochqinlarining Turkiyadagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlarga, ayniqsa etno-diniy vaziyatga ta'siri va Turkiyaning Suriya inqirozini hal etishga qaratilgan yondashuvi masalalari tadqiq etilgan.

Tadqiqotlar shundan dalolat bermoqdaki, mamlakat ichida Turkiyaning ichki va tashqi siyosiy yo'lini belgilashga ta'sir ko'rsatuvchi uchta kuchlar toifasi mavjud. Ularni Turkiyaning zamonaviy rivojlangan demokratik davlatlar safida bo'lishi uchun G'arb bilan, jumladan Yevropa davlatlari bilan hamkorlik qilishining tarafdori bo'lgan, buning uchun Turkiyani Yevropa Ittifoqiga a'zo bo'lishini istaydigan

¹¹ Letter from Lord Palmerston to M. Thiers, Dated Foreign Office, August 31, 1840 (London: T. Brettell, 1840) – P.5. Benjamin Disraeli wrote, in parallel, "Lebanon is the key of Syria." Tancred, or The New Crusade (London: Longmans, Green, 1847). – P. 368-446.

modernistlar, Turkiyaning ichki va tashqi siyosiy yo‘li G‘arb tomoni emas, aksincha arab-musulmon dunyosi bo‘lishi kerak, deb hisoblaydigan islom muhofazakorlari va Turkiyaning tarixiy buyukligiga qaytishini qo‘llab-quvvatlaydigan konservatorlar toifasiga ajratish mumkin. Suriya bilan bog‘liq etno-diniy ta’sir masalalarini yuqori doiralarda ilgari surish Turkiyadagi har uch toifa uchun qo‘l keladi.

Etnik ta’sir. Turkiya uchun Suriya inqirozidagi eng muhim ta’sirlardan biri suriyalik kurdلarning faollashuvi va ularning Turkiyadagi kurdلar bilan aloqalari hisoblanadi. Turkiyada Yaqin Sharqdagi eng ko‘p sonli kurdلar istiqomat qiladi. Ularning soni taxminan 15 mln.ga yaqin bo‘lib, Turkiya aholisining qariyb 15 foizini tashkil etadi. Agarda Iroqdagi singari Suriyada ham avtonom Kurd davlati (Rojava Kurdistoni) tuzilsa yoki ularning Turkiyadagi kurdلarning separatistik harakatlarini qo‘llab-quvvatlashi Turkiyaning hududiy yaxlitgini xavf ostida qolishiga olib kelishi mumkin.

Kurdلar Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy hayotida katta rol o‘ynaydi. Bu borada a’lohida e’tiborga molik jihat shundaki, Turkiyani 1989-1993-yillarda boshqargan 8-prezident Turgut Ozalning kelib chiqishi kurdلar oilasiga mansub. Turkiya Milliy razvedka tashkilotining (MIT) sobiq boshlig‘i, hozirda Turkiya Tashqi ishlar vaziri Hoqon Fidan ham ota tomondan kurd hisoblanadi.

Kurdلarning hukumat faoliyatida ishtirok etish jarayonlari ayniqsa R.Erdog‘an boshchiligidagi “Adolat va taraqqiyot” (ATP) partiyasining hukumatga kelishi bilan kuchaya boshladi. Partiya hukumatga kelishi bilan siyosiy jarayonlarda kurdلarning teng huquqli fuqarolar sifatida ishtirok etishini ta’minlashga jiddiy e’tibor berishi natijasida 2002-yilgi parlament saylovlarida 180 ga yaqin kurdلar saylandi hamda ularning ko‘pchiligi ATPga a’zolikka qabul qilindi¹². Hattoki, kurdلarning haq-huquqlari, ularning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini ta’minlash maqsadida Kurd Xalq demokratik partiyasi (HDP) tashkil etildi. Ammo, 2011-yilda Suriyada boshlangan fuqarolar urushi va bu jarayonlarda suriyalik kurdلarning faollashuvi Anqara hukumatini mamlakat ichkarisida kurdلarga nisbatan qarashlarini o‘zgartirishiga sabab bo‘ldi. Chunki, “Arab bahori” bilan o‘zgargan ichki va mintaqaviy dinamika KIPni vaziyatdan foydalanib, siyosiy maqsadlariga erishish yo‘lida qulay imkoniyat paydo bo‘lganini anglatar edi.

2023-yil may oyida bo‘lib o‘tgan Turkiyadagi prezidentlik saylovlari arafasida kurdلarning asosiy partiyasi hisoblangan HDPga qarshi turli nodavlat guruhlar tomonidan bosimlar 86 foizga kuchayganini ko‘rish mumkin¹³. Bundan tashqari, Turkiyadagi etnik vaziyatga tashqi kuchlar ham aralashib, ular “Kurd koridori” loyihasi orqali ta’sir ko‘rsatishga harakat qilib keladi. “Kurd koridori” Suriyaning shimolidan O‘rta Yer dengiziga qadar kurdلar boshchiligida tashkil etilishi mo‘ljallangan AQShning loyihasidir.

¹² Каримов Ф.Э. Яқин Шарқдаги этносиёсий муаммолар ва минтақавий хавфсизлик масалалари. – Т.: Sharq, 2016. – Б.111.

¹³ Kayla Koontz. Turkey’s Undead Pro-Kurdish Political Parties, Part 1: Local Representation. New Lines Institute, November 15, 2021. <https://newlinesinstitute.org/political-systems/democratic-accountability-democratization-and-elections/turkeys-undead-pro-kurdish-political-parties-part-1-local-representation/>

Diniy ta'sir. Turkiya o'zini dunyoviy davlat deb ma'lum qilgan bo'lsa-da, jamiyat hayotida o'zining tarixiy islomiy ildizlariga qaytish tuyg'usi mavjud. Turkiyaning yon-atrofidagi, ayniqsa Suriyadagi beqaror vaziyat din niqobi ostida "xalifalik"ni tiklash, bu borada turk jamiyatini shunday mafkuralarga ergashish uchun safarbar etishga urinishlar sodir bo'lishi Anqara hukumatini tashvishga soladi. Turkiya Prezidenti Rejep Tayyip Erdog'an "Dunyo yanada odil bo'lishi mumkin" kitobida bu haqida quyidagicha yozgan edi: "Hozirda mamlakatimiz uchun terror tahdidining eng asosiy manbasi Suriya va Suriyadagi voqealardir... Xuddi ISHID va PKK (KIP) kabi islomofobik radikal tashkilotlar ham terror tuzilmasi sifatida qaralishi kerak, shu shaklda baholanmog'i lozim. Insoniyat Xolokost falokatidan keyin qay tarzda antisemitizm bilan kurashayotgan bo'lsa, yuksalib borayotgan antiislomizmga qarshi ham ayni tarzda kurashishi kerak. Bugun xalqaro jamiyat ISHID harakatlariga qanday munosabat bildirayotgan bo'lsa, neonatsizm hujumlariga qarshi ham xuddi shunday e'tirozni namoyish qilishi kerak"¹⁴.

Hozirgi kunda dunyo qochoqlarining 52 foizi urush o'chog'iga aylangan Suriya (6,5 mln), Ukraina (5,7 mln) va Afg'oniston (5,7 mln) hissasiga to'g'ri keladi¹⁵. Ko'rinib turibdiki, qochoqlar oqimidagi eng katta ulush Suriyaga tegishli. Eng katta qochoqlar oqimini qabul qilgan davlat esa Turkiya hisoblanadi. Birgina 2022-yilda Turkiya qabul qilgan 3,6 mln qochoqning deyarli barchasi suriyalik qochoqlardir¹⁶.

Suriyalik qochqinlarning Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy holati va milliy xavfsizligiga eng katta ta'siri mahalliy xalq bilan ular o'rtasida kelishmovchilik chiqishi va u ommaviy tus olishi xavfi hisoblanadi. Turkiyadagi aholining aksariyati suriyalik muhojirlarni ko'plab ijtimoiy va iqtisodiy muammolarning sababchisi, deb hisoblaydi. Iqtisodiy muammolarning chuqurlashishi va suriyaliklarga yashash, ish, ta'lim va fuqarolik berilishi turk jamiyatining ko'p qismida norozilikning kuchayishiga sabab bo'lmoqda. Jumladan, muxolif bo'lgan "Zafar" partiyasi raisi Umid O'zdag' qochqinlarga fuqarolik berish jarayonining oxirgi paytlarda tezlashgani, fuqarolik berilgan suriyaliklar sonining 900 mingdan oshganini, Suriya fuqaroligidan tashqari turli millatlardan kelgan qochqinlar sonining esa 258 ming nafarga yetganini ma'lum qilib, Prezident T.R.Erdog'anga "2017-yildan beri bergan fuqaroliklaringizni rasmiy gazetada e'lon qiling, bu raqamga to'g'ri kelmasa, turk jamoatchiligi oldida sizdan uzr so'rayman"¹⁷, deb da'vat etgan edi. Umid O'zdag' bu holatni "Turkiyaga oddiy ko'chish emas, balki yashirin bosqin, qochqinlar ko'chishi Turkiyaning demografik, madaniy va oxir-oqibat siyosiy tuzilishini o'zgartiradi"¹⁸, deb ham baholagan edi. Bundan tashqari, Jumhuriyat Xalq partiyasi, Milliy harakat partiyasi, Demokratiya va Taraqqiyot partiyasi hamda Kelajak partiyalari

¹⁴ Эрдоған Р.Т. Дунё янада одил бўлиши мумкин. – Т.: Янги аср авлоди, 2022. – Б.22-112.

¹⁵ Global Trends. UNHCR. <https://www.unhcr.org/global-trends>

¹⁶ Global Trends forced displacement in 2022. UNHCR. – P.21. <https://www.unhcr.org/sites/default/files/2023-06/global-trends-report-2022.pdf>

¹⁷ Ümit Özdağ: Vatandaşlık verilen Suriyeli sayısı 900 bini geçti. Independent Türkçe. 22 Haziran, 2022. <https://www.indyrturk.com/node/524586>

¹⁸ Suriyeli Sığınmacıların Vatanlarına Dönmeleri İçin Yapılması Gerekenler. <https://zaferpartisi.org.tr/suriyeli-siginmacilarin-vatanlarina-donmeleri-icin-yapilmasi-gerekenler/>

Turkiyadagi suriyalik qochoqlarni o'z uylariga qaytarish lozimligini ta'kidlab keladi. Ko'rinib turibdiki, suriyalik qochqinlar masalasi Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy jarayonlariga bevosita ta'sir o'tkazmoqda. Bundan tashqari, Turkiya oldida suriyalik qochqinlar masalasida xavfsizlik muammolari ham turibdi. Suriyalik qochqinlar niqobi ostida Turkiya hududiga kirishni rejalashtirgan terrorchi va ekstremistik guruhlar Anqarani jiddiy tashvishlantirishi mumkin. Shu jihatlarni e'tiborga olgan holda, Turkiya suriyalik qochqinlar bo'yicha ikki xul usulni, ya'ni suriyalik qochqinlarni Turkiya milliy qonunchiligi va qadriyatlariga integratsiyalashuviga erishish va ularni bosqichma-bosqich o'z uylariga qaytarish usullarini qo'llamoqda. Ta'kidlash joizki, Turkiyaning suriyalik qochoqlar bo'yicha siyosatining ikkinchi usuli amalga oshishi juda murakkab va uzoq muddatni talab etadi. Chunki, Suriyadagi beqaror vaziyatning uzoq cho'zilishi bunga o'z ta'sirini o'tkazadi. Masalan, Turkiya suriyalik qochoqlarga bayram kunlarida o'z uylariga borib kelishiga ruxsat bergan bo'lsa-da, 2018-yilda ularning 76 foizi Turkiyaga qaytib kelgan. Shu nuqtayi nazardan, suriyalik qochoqlarni o'z uylariga qaytarish bo'yicha Anqara tomonidan ishlab chiqilgan har qanday dastur ta'sirchan bo'lmasligi mumkin.

